



THE IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL DIAGNOSIS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS

Ro`zieva Nazira Yodgorovna¹, Xudoyberdiyev Baxriddin Baxtiyorovich²

¹ Teacher of TDTU TERMIZ BRANCH, ² student of TDTU TERMIZ BRANCH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4898809>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2021

Accepted: 25th May 2021

Online: 30th May 2021

KEY WORDS

proteins, protein molecules, hormones, vitamins, metal ions, insulin, growth hormone, visual pigment rhodopsin, protein-fibrinogen.

ABSTRACT

In this paper, proteins perform different functions in many more processes than other compounds in the cell, and the functions performed by proteins are unique to protein molecules and are largely unrepeatable. The most important functions are catalytic, transport, protection, contraction, structure, hormonal and nutritional functions.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANI AMALGA OSHIRISHNING AHAMIYATI

Ro`zieva Nazira Yodgorovna¹, Xudoyberdiyev Baxriddin Baxtiyorovich²

¹ TDTU TERMIZ FILIALI o`qituvchisi, ² TDTU TERMIZ FILIALI talabasi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-May 2021

Ma'qullandi: 25-May 2021

Chop etildi: 30-May 2021

KALIT SO'ZLAR

proteyinlar, oqsil molekulalari, gormonlar, vitaminlar, metal ionlari, insulin, o'sish gormoni, ko'rish pigmenti rodopsin, oqsil-fibrinogen.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oqsillarning hujayrada boshqa birikmalarga qaraganda juda ko'p jarayonlarda xilma-xil funksiyalarni bajarishi va proteyinlar bajaradigan funksiyalar faqat oqsil molekulalari uchungina xos bo'lib, aksari takrorlanmas. Eng muhim funksiyalari katalizatorlik, tashish, himoya, qisqarish, tuzilish, gormonal va oziqaviy funksiyalarni bajarishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Oqsillar hujayrada boshqa birikmalarga (ximiyaviy komponentlarga) qaraganda ancha ko'p jarayonlarda xilma-xil funksiyalarni bajaradilar. Hamma proteyinlarning struktura elementlari bir xil aminokistolardan iborat bo'lsa ham ularning oqsil molekulasidagi nisbiy miqdorlari va joylanish o'rinlari turlichadir. Ko'p minglab oqsillarni sistematik va mantiqiy klassifikatsiyasi, ularning ximiyaviy

strukturasiga asoslangan bo'lishi kerak. Ammo bu vazifa juda mushkul va hozircha bajarilishi mumkin bo'lgani uchun, klassifikatsiya soddaroq prinsplar – ularning funksiyasi, kelib chiqishi, joylashishi, erish hususiyati, sodda yoki murakkabligi asosida tuzilgan. Proteyinlar bajaradigan funksiyalar faqat oqsil molekulalari uchungina xos bo'lib, aksari takrorlanmasdir. Eng muhimlari quyidagilar: katalizatorlik, tashish, himoya,



qisqarish, tuzilish, gormonal va oziqaviy funksiyalarni bajaradi.

1. Katalizatorlik funksiyani oqsillar mahsus oqsil – katalizatorlar – fermentlar yordamida bajaradi. Organizmda fermentlar ta'sirida moddalar almashinuvidagi har xil reaksiya tezligi va energiya ortadi.

2. Tashish funksiyasida oqsillar yordamida har xil moddalar qo'shib, bir organdan ikkinchi bir organga olib boriladi. Qonda eritrotsit oqsili gemoglobin o'pka kislarodi bilan birikib, oksigemoglobinga aylanadi. Qon orqali organ va to'qimalarga organoksigemoglobin parchalanib, o'z kislarodini to'qimalarning oksidlanish jarayonlarini ta'minlash uchun beradi. Qonning boshqa oqsillar triglitseridlar, yog' kislatolari, vitaminlarni va boshqa moddalarni qo'shib ishlatiladigan yoki ta'sir qiladigan joylarga olib boradi.

3. Himoya funksiyasini organizmda hosil bo'ladigan maxsus oqsillar bajaradi (antitela). Ular organizmga tushgan bakteriya va viruslarning hayotiy ish faoliyati natijasida hosil bo'lgan moddalarni bog'lab zararsizlantiradi. Himoya funksiyasini qondagi zardob oqsili – fibrinogen bajarib, qon ivishida ishtirok etib, oqishini kamaytiradi.

4. Qisqarish funksiyasining bir guruhi oqsillar harakatlanishi va muskul tizimining asosiy tuzilish komponenti bo'lib, organizm tomonidan mexanik ish bajarilishida qatnashadi. Aktin va miozin oqsillari muskullar qisqarishida ishtirok etadi.

5. Oqsillarning tuzilish funksiyasi shundan iboratki, ular hujayra tuzilishining asosini tashkil etadi. Ularning ko'plari

(biriktiruvchi to'qimaning kollageni, keratin, soch, tirnoq va terilar, tomir devori elastini va boshqalar) asosan tuzilish funksiyasini bajaradi. Oqsillarning yog'lar bilan majmuasi (fosfolipidlar) hujayra membranasi va ichki hujayralar tashkil bo'lishida ishtirok etadi.

6. Gormonal funksiyasi ko'pgina oqsillar moddalar almashinuvida boshqaruvchilik (regulator) rolini o'ynaydi. Ular gormonlarga kirib organizmning ichki sekretiya bezlarida va bir qancha organ hamda to'qimalarida hosil bo'ladi.

7. Oziqa funksiyasi ko'pgina oqsillar, ya'ni zahira yoki oziqa oqsillarining oziqa funksiyasini bajaradi. Tuxum oqsili o'sayotgan va rivojlanayotgan mevalarning urug'larini tashkil qilsa, sut oqsili esa yangi tug'iladigan bola uchun oziqa manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa: oqsillar bu ko'rsatib o'tilgan asosiy funksiyalardan tashqari yana juda ko'p biologik faol strukturalarning tuzilishida va funksiyasida ishtirok etadilar. Masalan, hayvon zaharlarining aksari ham oqsil tabiatiga ega, ko'rish pigmenti rodopsin. Informatsiyani hujayra ichiga uzatadigan membrana yuzasidagi maxsus tuzilma – retseptorlar oqsillarni boshqa molekular bilan bergan kompleksidir, qon oqsili – fibrinogen qon ivishida qatnashadi.

Oqsillarni erish qobilyati va molekulasining shakliga qarab eriydigan globulyar (dumaloq) suvda erimaydigan fibrillyar (ipsimon) proteinlarga, kelib chiqishi va tarqalishiga qarab hayvon va o'simlik, qon, sut, muskul oqsillariga bo'lish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo.X.To'raqulov "Bioximiya". Toshkent "O'zbekiston" 1996-yil. 22-23 betlar.
2. N.A.Raxmatov, T.M.Maxmudov, S.Mirzayev "Biokimyo". "Ta'lim" nashryoti. Toshkent 2009-yil. 73-74 betlar.